



“AYN UL -HAYOT” –NA’T QASIDA

Muxtorova Dildora Istamovna

*Buxoro Davlat Universiteti magistranti*

*Annotatsiya: Maqolada Mumtoz she’riy janrlarning eng qadimiylaridan biri bo’lgan qasida janri xususiyatlari va Alisher Navoiyning na’t qasidasi bo’lmish “Ayn ul hayot “ qasidasi haqida so’z boradi.*

*Kalit so’zlar: na’t, qasida, me’roj, vazn, ramal, baxr.*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Sittayi zaruriya” qasidasi O’rta Osiyo , arab va eron xalqlari she’riyatida katta o’rin tutgan .Qasida janri lirikaning rivojida muhim rol o’ynagan . Qasidago’ylik XIV –XV asrlarga kelib o’zbek shoirlari orasida keng tarqalgan edi. Sharq adabiyotida qadimgi davrlardan beri mavjud bo’lgan qasida ,ayniqsa Navoiy va uning zamondoshlari ijodida yuqori pag’onaga ko’tarildi. Shuning uchun bu davr qasidago’yligi va uning an’analarini o’rganmay turib ,O’zbek adabiyotining rivoji haqida ,ayniqsa ,Navoiy ijodi haqida tugal bir fikr

aytish qiyin. Lekin shunga qaramay ,hozirgacha o’zbek klassik adabiyotida ham bu masala durustroq o’rganilmagan.

XIV-XV –asrlar o’zbek adabiyotida qasida va qasidago’ylikka bag’ishlangan maxsus ilmiy asar bo’lmasada , antologiyalarda ko’rish mumkin.

Milliy istiqlolgacha Sharq, jumladan, o’zbek mumtoz adabiyoti sho’rolar mafkurasi tazyiqi ostida "dunyoviy adabiyot", "feodal-saroy (klerikal) adabiyoti", "diniy-mistik adabiyot» tarzida sun’iy ravishda uch guruhga parchalangan edi. Mazkur yo’nalishlardan faqat dunyoviy (xalqchil) adabiyotgina ijobiy hodisa sifatida tan olindi va o’rganildi. Hatto shu dunyoviy adabiyot vakillarining ijod namunalari ham ilohiy-irfoniy g’oyalardan "tozalanib", markscha-lenincha mafkura tamoyillari asosida tahlil va talqin qilindi.

Shunga ko’ra, Alisher Navoiyning "Devon"lari, "Xamsa" dostonlari ibtidosida kelgan kirish boblar – hamd, na’t, sano, me’roj, munojot talqiniga atalgan maxsus parchalar, nasriy asarlari, ilohiy tavhid madh etilgan "Ruh ul-quds" qasidasi, ilohiy-islomiy hukmlar talqiniga bag’ishlangan "Siroj ul-muslimin", "Munojot" kabi asarlari, ilohiyotga doir qarashlari maxsus tadqiq etilmadi. Hatto asarlari tarkibidagi kirish hamdlar "qirqib", nashr etildi. Shuning uchun bugunga qadar ulug’ shoirning hamd yo’nalishidagi asarlari nisbatan kam o’rganildi.

Bu masalaning o’z izohlari borligi ayon, albatta. Alisher Navoiyning hamd g’azallari "uning lirikasidagi o’tkinchi va tobe’ bir kayfiyat" sifatida e’tirof etildi. Taniqli adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda hazrat Navoiyning hamd g’azallarini mafkura tazyiqlari (dahriy tuzum uchun zararli ma’naviy unsur sifatida butunlay yo’qotib yuborilishi)dan saqlab qolish maqsadida atayin shunday baholashni lozim deb topgan.

Shunday bo’lishiga qaramay, Alisher Navoiy ijodining ilohiy-irfoniy manbalardan oziqlanganligi e’tirof etilgan edi. Bu ayniqsa, E.E.Bertels, Oybek, A.Rustamov, H.Sulaymon, A.Hayitmetov, B.Valixo’jayev, N.Komilova, R.Vohidov, S.G’aniyeva, H.Ne’matov, I.Haqqulov, E.Shodiyev, Yo.Is’hoqov va yana bir qator olimlarning ishlarida yorqin ko’zga tashlanadi.



"Sittai zaruriya" qasidalar turkumi esa shoirning kam o'rganilgan asarlari sirasiga kiradi.

"Sittai zaruriya" ga bo'lgan qiziqish asrimizning 60-yillaridan jonlana boshladi.

Forsiyda bitilgan, 724 baytdan iborat "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") ning to'la matnini professor Hamid Sulaymon ulug' shoirning Parij Milliy kutubxonasida 285-raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma devoni asosida arabiy va krill imlosida 1968 yilda "Adabiy meros" majmuasida nashr ettirdi.

Oradan yigirma besh yil o'tgach, bu yo'lni tojik adabiyotshunosi Ali Muhammadiy davom ettirdi, ya'ni qasidalar turkumi Dushanbeda (1993 yil) arab yozuvida "Irfon" nashriyotida ulug' o'zbek shoiri forsiy she'rlar bir jildlik saylanmasi tarkibida chop etildi.

Bu qasidalar turkumi o'tgan asrning 70-yillarida madaniy merosga lenincha munosabat tamoyillari nuqtai nazaridan o'rganilganki, bunday munosabat asar tub mohiyatini ochish imkonini bermagan.

"Devoni Foniya" da muhim o'rin tutuvchi janrlardan yana biri qasidalaridir.

Ularning soni 10 ta bo'lib, ikki turkumni: "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") va

"Fusuli arbaa" ("To'rt fasl") qasidalar majmuasini o'z ichiga oladi.

"Sittai zaruriya" olti qasidadan iborat bo'lib, Alisher Navoiy ularning mavzusi haqida "Muhokamatu-l-lug'atayn" da shunday yozadi: "Bu olti qasida hamd va na't va sano va mav'izotdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma'rifat". Mazkur majmua 1497 yilda tartib berilgan bo'lib, uni tuzishga Navoiyni avval ustoz Jomiy, uning vafotidan so'ng esa Sulton Husayn Boyqaro ilhomlantirgan.

Bu haqda majmuaga yozilgan debochada ma'lumot keltirib o'tiladi.

Ma'lumki, Navoiy ijodida Payg'ambar(SAV)ga ba- g'ishlangan na'tlar ko'p. Har bir devon avvalida Parvardigor hamdidan keyin Payg'ambari Akramga atalgan na't g'azallar keltiriladi. Ba'zi devonlarning o'rtalarida ham na't g'azal bor. Dostonlar ham avval Xudovand hamdi, so'ngra Payg'ambar na'ti bilan ochiladi. Bu — an'ana. Xuddi shu singari «Sittai zaruriya» yaxlit bir asar deb qaralgani uchun birinchi qasida tavhidi Bori taoloni talqin etsa, ikkinchi qasida Payg'ambar Me'roj tasviriga bag'ishlangan. Me'roj Navoiy Foniyning alohida sevgan mavzuidir.

Chunki Navoiy ham, boshqa so'fiy yoki mutasavvif shoirlar ham Payg'ambar Me'rojida tasavvuf g'oyalariga yaqin narsani va so'fiylarning ruh uruji (ko'tarilishi), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharraf bo'lish g'oyasining isbotini ko'radilar. Shu bois Me'roj kechasi Rasuli akramning Koinot bo'ylab sayri, Buroq otida Jabroil(AS) jilovdorligida yetti qavat osmondan oshishi va Arshga yaqinlashib, Olloh bilan suhbatlashishi katta shavq-u zavq, qaynoq ilhom bilan tasvirlanadi. Bu tabiiy, chunki ushbu mavzu o'z xususiyati va mohiyati bilan shoironadir. Shu bois u buyuk shoirlar ilhomini qanotlantirgan. Va, e'tiborlisi shuki, Navoiy dostonlari, xoh g'azal, xoh qasidalarida bo'lsin, har g'oya ushbu mavzuni yangi, toza tasvirlar bilan yoritadi, aynan takrorlamay, yangi-yangi usullar qo'llaydi.

Majmuadagi ikkinchi qasida "Ayn ul-hayot" ("Hayot chashmasi") deb nomlangan. Hajman 106 bayt bo'lib, mazmuniga ko'ra na't qasida hisoblanadi. Qasidaning yaratilgan yili noma'lum. "Ayn ul-hayot" olam sarvari, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning muborak me'rojlarini, ularning diydorlariga barcha sayyoralar, oyu quyosh, arshu kursi, farishtalar



muntazir ekanligi, Payg'ambarimizning Parvardigor bilan muloqotlari tasviriga bag'ishlangan.

“Ruh ul-quds” kabi “Ayn ul-hayot” qasidasi ham “tab'i xud”, ya'ni mustaqil ravishda yozilgan asarlardan hisoblanadi. Bu asarda Foniyy an'anaviy me'roj mavzusini yangi, toza tasvirlar bilan yoritadi, aql qudratidan xorij bo'lgan bu mo'jiza vasfida so'zning qudratidan foydalanadi.

Qasida muraddaf bo'lib, “afganand” (tushirishar) radif vazifasini bajargan. Me'rojning lug'aviy ma'nosi esa, “ko'tarilmoq”, “Haq taolo huzuriga yuksalmoq”dir. Ham jismoniy, ham ruhiy uruj (yuksalish) tasviri va tavsifiga bag'ishlangan baytlarni “tushirmoq” ma'nosini anglatuvchi radifning mantiqiy mehvari atrofiga birlashtirish katta san'atkorlik talab qiladi. Bir yuz-u olti baytda “tushirmoq” so'zini qo'llab, sarvari koinotning ma'naviy kamoloti, koinot gultojining yuksak maqomi va martabasini belgilovchi, kufr va imon ahli o'rtasidagi farqni uzil-kesil belgilab beruvchi mo'jiza – me'roj kechasini ta'riflash orqali Foniyy forsiy she'riyatda ham zabardast shoir ekanligini isbotlab bergan.

Qasida quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Hojiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,

Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand.

(Mazmuni: Tun hojib – pardadorlari qora chodirlarini tushirgan paytda

Oy yuzli sanamlar xayliga jilva – nur tushiradilar).

Bu baytdagi har bir istiora bir necha ma'noni ifoda etadi. “Tun hojiblari” istiorasi qo'riqchi farishtalar ma'nosini ifodalaydi. “Savdo” so'zi qoralik ma'nosidan tashqari, “muhabbat, shaydolik, tayyorgarlik, faol harakat” ma'nolarini ham ifodalaydi. “Butoni mohsiymo” – osmondagi sobit-u sayyoralar. Demak, tun farishtalari Payg'ambarimiz (s.a.v.) me'rojining taraddudiga muhabbat bilan kirishib, osmonga qora chodir tushirdilar, oy tal'atli sayyoralarni bezatdilar, demoqchi shoir. Shu tariqa, 40 bayt davomida tashxis, istiora, tashbeh, iyhom kabi mushtarak va ma'naviy san'atlar vositasida me'roj kechasi tasviriga tortiladi. Bu baytlarda osmon jismlari va tungi manzara ham badiiy obraz, ham moddiy mavjud ashyo kabi taassurot uyg'otadi. Qasidada osmon faqat sayyora va yulduzlar makoni emas, balki farishtalar maskani, ruhlar olami, pok va ulug'vor manzil, tiriklik sarchashmasi, hayot ko'zgusi sifatida tasvirlangan. Me'roj kechasining tasviriga bag'ishlangan yana bir xususiyat – baytlar yuqori ko'tarinki ruh, farahbaxshlik bag'ishlovchi, ohangdor so'zlar tizimidan tarkib topgan. Chiroyli o'xshatishlar va tashxis unsurlari yordamida Yetti sayyora va o'n ikki burjning asosiy xususiyatlari qalamga olinadi.

Qasida aruz tizimining ramali musaddasi maqsur (afoyili va taqti'i: foilotun foilotun foilon – V- – /- V- – / – V- ) vaznida yozilgan. Tashbeh va tasvirning go'zalligini qarangBu o'rinda savdo tayyorgarlik, faol harakat ma'nosini anglatadi. Hojib so'zi pardadordan tashqari, qo'riqchi farishtalar ma'nosini ham ifodalaydi. Oy yuzli go'zallar — sayyoralar. Demak, tun farishtalari taraddudga tushib, shohona chodirlar qurib, sayyoralarni bezatdilar, demoqchi shoir.

Keyingi bayt:

Sad hazaron kirmi shabtob az shabistoni sipehr

Lam'aho bar pardai shabguni g'abro afganand.



(Osmonning toqilgan yuz minglab yaltiroq qurtlar — yulduzlar yerning qorong'i pardasiga yog'dular to'kadilar, go'yat original tashbeh va istiora, iyhomlar bilan osmon jismlarini ta'rif etilgan) ikkinchi tarafdin, osmon jismlari, yerdagi ashyolarni inson idrokiga, hayotga yaqinlash- tirib, jonlantirib baytlar tuzish. Go'yo samoviy jism- lar ham obraz va ham moddiy mavjud ashyoday taassurot qoldiradi o'quvchida. Bilamizki, qadimda osmon jismlari — sayyoralar, yulduz turkumlari, burjlar turli xislat va xususiyatlarga ega deb qaralgan. Ular inson taqdiri hamda hayot hodisalari bilan vobasta qilib tushuntirilgan va ko'pining nomlanishi hayvonlarning nomi (qis- qichbaqa, ho'kiz, chayon, baliq kabi) yoki insonga kerak ashyo- asboblari (dalv, tarozi) yoinki inson kasb-kori (kamon otuvchi kabi) bilan bog'liqdir. Navoiyda osmon jismlari ruhlar makoni, farishtalar joyi, ular go'yo tirikday etib tasvirlanadi. Ushbu qasidaning umumiy ruhi bir xush- nudlik, farahbaxshlik bo'lgani uchun har bayt mazmunida ham bu seziladi. Koinot, borliqni Alloh yaratgan, jamiki hammasi Allohga tasbeh aytadi. Biroq Me'roj kechasida ular Alloh habibining tashrifidan junbushga kelgan va xuddi jonli olamday bu hodisadan sarafrozdirilar. Alisher Navoiyning « Ayn ul -hayot» qasidasi o'zining falsafiy, ijtimoiy- axloqiy va badiiy ko'laminin g kengligi , ularning a'lo darajada idrok etilib, amalga oshirilgani jihatidan nazirai benazir, ya'ni o'xshash-o'xshamas bir badiiy kashfiyotdir. Bunda shoirning shohlik va uning fazilatlari, jamiyatdagi turli toifa sifatleri, faqr va faqirlikning naqshbandiya suluki nuqtayi nazaridan talqini va

uning zabardast murshidi Abdurahmon Jomiyning olijanob fazilatlari haqidagi kuzatishlari falsafiy va badiiy uslubda bayon etilgan.

« Ayn ul hayot» qasidasining o'zi Alisher Navoiy-Foniyning forsiygo'ylikdagi ulkan imkoniyat va mahoratlarini namoyish etganidan ulug' shoirning bu tildagi asarlaridan so'z yuritgan Sharq alloma va tazkiranavislari uni namuna va ibrat darajasida ekanini mamnuniyat bilan e'tirof etadilar. Xulosa: Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy g'azal mulkininggina emas, balki forsiy qasidanavis hamdir. Alisher Navoiy she'riyat mulkining sultoni, sohibqironi sifatida o'zining ko'p qirrali va barakali asarlari bilan o'zbek va Sharq mumtoz adabiyoti xazinasini noyob badiiyat durdonalari bilan boyitdi.

Shuning uchun XV asrdan so'ng faoliyat ko'rsatgan o'zbek, ozarbayjon, turk, turkman, totor, uyg'ur adabiyotlarining namoyandalari hamda forsiygo'ylar ham uni ustoz deb e'zozlab, an'analarini davom ettirib kelmoqdalar.

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 18-жилд, 334-бет.
2. Фарҳанги забони тожики. Нашриёти “ Советская Энциклопедия ”. Москва, 1969. 445с,881 с.
3. Алишер Навоий. XV томлик, 5-жилд, 1-китоб. 230-бет. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 18-жилд, 356-бет.
4. Алишер Навоий. 10 томлик. 5-жилд. 179-бет.
5. Фарҳанги забони тожики. Нашриёти “ Советская Энциклопедия ”. Москва, 1969. 750 с.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. V жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. XV томлик, 5-жилд, 1,2-китоб.
3. Деҳлави Амир Хусрав. Осори мунтахаб. Дар чаҳор жилд. Жилди чаҳорум. – Душанбе : Ирфон, 1975. –896 б.
4. Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва “Рух ул- қудс” қасидасининг бадиияти. Филология фанлари номз... дисс. – Тошкент: 2003. –158 б.